

ADABIYOTDA QUSHLAR OBRAZI: TALQIN VA TAHLIL



Jahongir KOMILJONOV

KIUT Namangan filiali o'qituvchisi,

Namangan davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda qushlar obrazining shakllanishi, ularning ramziy va semantik yuklamalari, tarixiy-madaniy kontekstda qanday rivojlanib borganligi tahlil qilinadi. Qush obrazlari qadimiy mifologik manbalardan boshlab zamonaviy adabiyotgacha turli davr va makonlarda muayyan g'oyaviy-estetik vazifalarni bajargan. Jumladan, qushlar timsolida erkinlik, orzu-umid, ilohiylik, vatan va sevgi tushunchalari ifodalangan. Maqolada Sharq va G'arb adabiy an'analaridagi qush obrazlarining qiyosiy tahlili ham o'rin olgan bo'lib, ularning badiiy tafakkurdagi evolyutsion o'zgarishlari yoritiladi.

Kalit so'zlar. qush obrazi, badiiy adabiyot, ramz, mifologiya, erkinlik timsoli, estetik yuklama, Sharq adabiyoti, G'arb adabiyoti, obraz evolyutsiyasi, timsollar tahlili

KIRISH

Badiiy adabiyotda timsollar orqali fikr ifodalash, g'oya va hissiyotlarni badiiy vositalar orqali yetkazish qadim zamonlardan buyon adiblar ijodining muhim jihatlaridan biri bo'lib kelgan. Ana shunday obrazlardan biri – qushlar timsolidir. Qush obrazi inson tafakkurida turli ma'naviy va ramziy ma'nolarni ifodalab kelgan: u ozodlik, ruhiy poklik, orzu-umid, ilohiylik va hatto fojiani anglatadigan ramz sifatida ko'rildi. Dastlabki mifologik e'tiqodlarda qushlar xabar yetkazuvchi, ilohiy kuchlar bilan bog'lovchi vosita sifatida tasvirlangan

bo'lsa, keyingi davrlarda ular adabiy tafakkurda yanada chuqurroq ma'nolarga ega bo'la boshladi.

Sharq va G'arb adabiyotida qush obrazlarining talqini har xil bo'lib, ularning ma'nodagi evolyutsiyasi adabiy maktablar, tarixiy sharoitlar va muallif dunyoqarashiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lgan. Masalan, Sharq adabiyotida qushlar ko'pincha ruhiy kamolot va ilohiy sevgi yo'lidagi timsollar bo'lsa, G'arbda ular ko'proq ekzistensial izardrob, yolg'izlik yoki ijtimoiy muammolar ramzi sifatida uchraydi.

Ushbu maqolada qushlar obrazining badiiy adabiyotdagi shakllanishi va nazariy talqinlari tarixiy taraqqiyot asosida tahlil qilinadi. Obrazning semantik yuklamalari, g'oyaviy-estetik funksiyalari hamda ular o'zgarib borishi – ya'ni obraz evolyutsiyasi markaziy tahlil obyektiga aylanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qush obrazi badiiy adabiyotda eng qadimiy va ko'p qatlamlı ramzlardan biri sifatida ko'p marotaba adabiy-tanqidiy tadqiqotlarning e'tibor markazida bo'lgan. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, asosan, ramzshunoslik, mifopoetik tahlil, madaniyatshunoslik, semantik tahlil hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishlarida amalga oshirilgan. Jumladan, G'arb adabiyotshunoslida K. G. Yungning arxetipler nazariyasi, N. Frayning mifologik struktura tahlili, G. Bachelardning poetik tasavvurlar tahlili kabi nazariyalar qushlar timsolini talqin etishda asosiy metodologik vositalardan bo'lib xizmat qilgan.

Sharq adabiyotida esa tasavvufiy tafakkur, sufiyona ramzlar, xususan, "Simurg", "bulbul", "qaldirg'och" kabi obrazlar orqali insonning ruhiy kamolot yo'li ifoda etiladi. Bu jihatdan Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari, Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr" dostonlari qush obrazining falsafiy talqiniga asos bo'lgan eng muhim manbalardan hisoblanadi.

Maqolada adabiyotlar tahlili ikki asosiy yo'nalishda amalga oshirildi:

1. **Tarixiy-evolyutsion yondashuv** asosida qush obrazining qadimgi mifologik matnlardan boshlab, o'rta asr va zamonaviy adabiyotdagi shakllanishi o'rganildi.

2. **Qiyosiy-tahliliy metod** yordamida Sharq va G'arb adabiy maktablaridagi qushlar obrazi semantikasi va estetik funksiyasi o'zaro solishtirildi.

Shuningdek, zamonaviy adabiyotshunoslikdagi intertekstual tahlil va ramziy qatlamlarni ochib berishga xizmat qiluvchi semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Bunda asarlar ichidagi qush obrazlarining konnotatsiyalari, ular bilan bog'liq kontekstual g'oyalar va ularning o'zgaruvchan tabiatini o'rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJA

"Obraz" termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "aks" degan ma'noni anglatadi. Obraz tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda "badiiy obraz" deganda, borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi nazarda tutilsa, tor ma'noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi. Badiiy adabiyotda inson obrazini yaratishda, uning to'laqonli aksini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirish uchun xizmat qiladigan bir qator vositalar mavjud. Bunga misol tariqasida muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy vositalar kiradi". Adiblar tomonidan yaratilayotgan har bir obraz asar davomida o'z o'rniga ega hisoblanadi. Kichik detal ham o'sha asarning mukammal yaratilishiga o'z hissasini qo'shadi. Shunday obrazlardan biri – "qush" obrazi. O'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham qush obrazi alohida o'rinni tutadi. Har bir ijodkor borki, xoh u nasrda, xoh nazmda bir bor bo'lsa-da, bu mavzuda qalam tebratgan.

Badiiy adabiyot nazariyasida qushlar obrazi qadimdan buyon insoniyat tafakkurida eng sermazmun timsollardan biri sifatida qaralgan. Insonning tabiatni kuzatishi, qushlarning erkin uchishi, sayrashi va o'ziga xos tabiatni ularni



ramz va majoz sifatida talqin etishga undagan. Shu bois qush obrazi adabiyotda nafaqat estetik-bezak vazifasini, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy ma'nolarni ham ifodalash imkoniyatiga ega bo'ldi. Adabiyotshunoslikda bu obrazning nazariy asoslari bosqichma-bosqich shakllanib, turli davrlarda yangicha talqinlarda namoyon bo'ldi.

Qush obrazi qadimiy mif va rivoyatlarda ko'proq kosmogonik va ilohiy timsol sifatida talqin qilingan. Turk va umumsharq mifologiyasida qush osmon bilan yer o'rtasidagi vositachi, hayot manbai va ruhiy yuksalishning timsoli sifatida qaralgan. Masalan, qadimiy turkiy miflarda burgut qudrat, himoya va hukmronlikni, qumri esa mehr-muhabbat va sadoqatni anglatgan. Adabiy nazariya nuqtayi nazaridan, bu davrda qushlar — insonning koinotga munosabatini ifodalovchi umumlashma ramz bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotda qushlar va hodisalar obrazi, ular bilan bog'liq badiiy tushunchalar ma'lum ahamiyatga ega. Qushlar obrazi dunyoning turli xalqlari og'zaki va yozma adabiyotida alohida o'rinn tutadi. Asosiysi, ular bir-biridan tashqi ko'rinishi va ovozi jihatidan farq qilsa-da, ko'pincha yaqin ma'noda talqin etilishi va o'xshash badiiy-estetik vazifalari bilan e'tiborni tortadi. Xuddi shunday, dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan qushlar haqidagi afsona va rivoyatlar ham diqqatga sazovordir. Ularda yer va osmon uzra uchayotgan qushlar ko'pincha xudolarning xabarchilari sifatida tasvirlangan. Masalan, yunon mifologiyasida kabutarlar Astart qushi, Afrodita, Venera, Muqaddas Ruh kabi mifologik obrazlarning shakllanishiga, shuningdek, o'liklarning timsoli bo'lgan o'liklarning ruhiga sabab bo'ladi. Irlandiya mifologiyasida Odin obrazi qarg'a timsolida gavdalansa, turnalar Merkuriyning muqaddas qushi Germesning avlodi, kelt mifologiyasida Oy qushi, burgutlar Zevs va Yupiter avlodlari sifatida talqin etiladi. Qushlar deyarli barcha xalqlar og'zaki va yozma adabiyotida keng qo'llaniladigan obrazlardan biridir. Qushlarning "ichki nuri" bor, deyishadi. Afsonalar va ertaklarda qushlarga munosabat turlicha bo'lishi kuzatiladi. Qushlar obrazi ilk bor folklor asarlarida talqin etilgan. Keyin yozma



adabiyotga kirdi. Ba'zi xalqlar qushlarga qo'rquv va nafrat bilan qarashsa, boshqalari ularni donolik timsoli, tabiblar, sehrgarlar, hayot va o'lim o'rtasidagi "ko'prik" sifatida hurmat qiladi. Masalan, hind folklorida qushlar kelajakni bashorat qilish qudrati bilan donolik timsoli sifatida tasvirlangan. Yunon miflarida va Ezop ertaklarida qushlar o'xshash xususiyatlarga ega. Ammo O'rta asrlarda Evropada qushlar haqidagi qarashlar asta-sekin o'zgara boshladi. Bu davr adabiyotida qushlar yovuz kuchlar bilan bog`lanib, salbiy obraz sifatida talqin qilinadi. 18-asrga kelib qushlarning ornitologik xususiyatlarini chuqr o'rganish natijasida ular haqidagi tushunchalar kengaydi, 20-asrda esa ular hikmat va bashorat timsoli sifatida yana o'zining ijobiy talqiniga ega bo'ldi. Qushlar tasviri tarixiga chuqurroq nazar tashlasak, uning bir ildizi qadimgi yunon mifologiyasiga borib taqalishini ko'ramiz[8:54]. Binobarin, donishmandlik ma'budasi Afina qushlarning katta ko'zлari va mahobatli ko'rinishidan hayratlanib, yordamchisi bo'lgan mushukni o'z saroyidan haydab, o'rniga qush (boyqush – J.K.) qo'ygani aytildi. Aytishlaricha, bu kichik qushlar (Athene noctua) Afinaning sevimli qushiga aylangan va bu qushlar oilasi alohida himoyaga olingan va asta-sekin Akropolda tarqala boshlagan. Shuning uchun yunon askarlari qushlarni Afinaning ramzi sifatida tan olishgan va uni turli urushlarda doimiy hamroh va yordamchi sifatida olib yurishgan. Agar qushlar jang oldidan askarlarning ustidan uchib ketsa, bu yaqinlashib kelayotgan jangda g'alaba belgisi hisoblanadi. Qushlarga juda katta e'tiqod va hurmatga ega bo'lgan yunonlar tangalar orqasida uning tasvirini aks ettirgan. Tangalarda qushlarning tasviri savdoning muvaffaqiyatli va foydali bo'lismiga ishonish bilan bog'liq edi. Bundan tashqari, yunonlar qushlarni kundalik hayotlarida ilhom manbai deb bilishgan. Qadimgi Rimda qushlarning jasadlari qandaydir noxush holatlarning oldini olish yoki to'xtatish uchun uylarning eshiklariga osib qo'yilgan. Ammo ba'zi manbalarda qushlarning qichqirig'i yaqinlashib kelayotgan o'lim belgisi sifatida ko'rsatilgan. Masalan, Yuliy Tsezar, Avgust va Agrippanning o'limi qushning faryodidan bashorat qilingani aytildi. Chunonchi, Uilyam Shekspirning mashhur "Yuliy Tsezar" asarida shunday talqin bilan

bog'liq bo'lgan quyidagi parcha bor: "...kecha tun qushi tushda ham bozorda o'tiribdi, Ug'irlab, qichqirdi". Bu parchadagi tun qushi qushlarga ishora qiladi va uning "ulashi va qichqirig'i" yaqinlashib kelayotgan o'limga ishoradir[6:87]. Dajla va Furot daryolari orasidagi tekislikda Rim armiyasining mag'lubiyati afsonalarda qushlar tomonidan bashorat qilingan. Ikkinchisi asrning folbini Artemidorusning aytishicha, tushida qushlarni ko'rish yaqinlashib kelayotgan sayohatning

Mumtoz adabiyot nazariyasida qush obrazi, ayniqsa, tasavvufiy tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Tasavvufda qush — inson ruhining ozodligi, ilohiy haqiqat sari uchishi va komillikka intilishining ramzi sifatida talqin qilindi. Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr"[1:7] asari bu obrazning nazariy asoslarini shakllantirgan yirik manbalardan biri hisoblanadi. Asarda qushlar jamiyati orqali insoniyatning Haq yo'liga safar qilishi tasvirlanadi.

Qushlarning poetik ramziyati Sharq adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Hazrat Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr"[2:13] dostonida qushlar safari orqali inson kamolotining yetti bosqichi – talab, ishq, ma'rifikat, istig'no, tawhid, hayrat va faqru fano – haqida so'z yuritiladi. Dostonning "Ma'rifikat vodiysining vasfi" bobida Navoiyning tasviricha, ma'rifikat vodiyyida insonlarning darajalari turlicha bo'lib, bu darajalar "yuz tuman, ming onda yo'l" bilan ifodalanadi. Shoir "juzv ila kull" tamoyili orqali bo'lak va butun, taraqqiy va tanazzul o'rtasidagi ixtilofni bayon qiladi. Shu bobda bayon etilishicha, ma'rifikat vodiysida pashsha ham, fil ham, jibril ham yo'lovchi sifatida yo'l oladi; Muso, Fira'vn, Mahdi, Dajjal, Ahmad va Abu Jahl kabi tarixiy va diniy shaxslar ham rahravlar sifatida tasvirlanadi. Bu misollar orqali Navoiyning maqsadi shuki, har bir inson o'z ma'rifiy darajasiga ko'ra yo'l tanlaydi va u yo'llar bir-biridan farq qilishi mumkin. Shoir hadis mazmunini keltiradi: haqqa eltuvchi yo'llar soni xaloyiqning nufuzi bilan barobar bo'lib, har bir odam o'z yo'lini to'g'ri deb biladi[2:224].

Dostonning hikoyat qismida bir guruh ko'zi ojiz kimsalar Hindistonda bo'lib, filni tasvirlashadi. Har biri faqat o'z qo'li bilan tekkazgan a'zosini biladi va shundan kelib javob beradi. Karkas qushi tasviri kabi badiiy vositalar yordamida Navoi, ma'rifatda kamolga yetmagan kishilarning cheklangan qarashlari va ixtiloflarini tasvirlaydi. Shuningdek, bu hikoya ma'rifatga erishishning muhimligini, ilm va tajriba orqali inson kamolotiga yetish lozimligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, Navoi "jahondin notamom o'tmak"ni hammomga kirib nopol chiqishga qiyoslab, ma'rifatga yetmagan kishilar holatini bildiradi. Keyingi asrlarda ma'rifat so'zi ko'pincha "ilm-ma'rifat" bilan juftlashib ishlatilgan va bu uning tanish, bilish ma'nolarini mustahkamlaydi.

Qushlar ramzi turkiy va fors-sharq mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan. Fariduddin Attorning "Mantiq ut-Tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-Tayr", Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi asarlarida qushlar poetik timsol sifatida ishlatilgan. Qadimiy turkiy yozma yodgorliklarda ham qushlar majoziy ma'noda ifodalanadi. Masalan, "Tunyuquq bitigi"da qush-yov va em-yov timsoli orqali kuchsiz va kuchli tomonlarning qarama-qarshiligi badiiy vosita orqali ochiladi[9:156]. "Devonu lug'otit turk"da qushlar inson ruhiyati, ijobiylari salbiy fazilatlarni ifodalovchi metafora sifatida ishlatilgan. Dengiz atrofida uchayotgan qushlar inson iztiroblari, ko'z yoshlar va umid ramzi sifatida tasvirlanadi: "Agar ko'zim ush tengiz, tegra yo'ra qush uchar, ko'z yoshlarim chun dengiz, tegrasida qush uchar"[10.2025]

Qarg'a hayotdagi ochko'z, birovning haqiga ko'z olaytiradigan insonni timsol qilsa, karkas qushi bilimga chanqoq, ilmni tez o'zlashtiruvchi kishini ifodalaydi. Shu tariqa, "Devonu lug'otit turk" va "Qutadg'u bilig"da qushlar timsoli orqali insonlarning turli xususiyatlari, ijobiylari salbiy xarakterlari obrazli tarzda beriladi. "Qutadg'u bilig"da qushlar uch xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: galadagi qushlar xalq yoki guruhni, ijobiylari sifatli qushlar yaxshi insonlarni, zarari tegadigan qushlar esa salbiy inson guruhini ifodalaydi. Dostonida Bug'roxonning taxtga o'tirishi bahor bilan bog'lanib, qushlar ramzi



Orqali umumlashtiriladi. G'oz, o'rdak, oqqush, turna, kaklik, bulbul, qora qarg'a kabi qushlar insonlarni ramziy tarzda aks ettiradi. Bulbul va kaklik voqelikni ulug'lovchi, madh etuvchi ramz sifatida ishlatilsa, qora qarg'a yangi adolatli shohning dushmanlarini timsol qiladi. Shuningdek, Bug'roxonning taxtga o'tirishi uzoq mamlakatlardan kelgan mehmonlar qushlar orqali ifodalanadi: "Asirdan kelgan olam qushlari, ba'zilari hind rajlari, bazilari (rum) qaysarlari toifasidandir. Ovozasini tez yoyishdi, otini madh etib kuyladilar. Sevinchga to'lib-toshib quvonch bilan ovundilar"[7:45].

Qush obrazi milliy-madaniy, diniy-ijtimoiy hamda falsafiy nuqtai nazardan qaralganda insoniyat tafakkurida o'ziga xos, murakkab va ko'p qatlamli ma'noga ega bo'lgan ramz sifatida shakllanadi. Qushlar qadimdan beri tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalash bilan birga, osmon va yer oralig'idagi ilohiy vositachi sifatida ham tasavvur etilgan. Shu bois ularning ramziy ma'nolari turli madaniyatlarda, diniy qarashlarda, xalq og'zaki ijodida va badiiy adabiyotda doimiy o'rinnegallab keladi. Falsafiy tafakkur ham qush obrazini inson hayotining turli qirralariga moslab talqin qiladi. Avvalo, qush erkinlik va go'zallik ramzi sifatida qaraladi. Qanot yozib parvoz qilgan qush timsolida insoniyat azaldan ozodlikni, ruhiy va jismoniy qamovlardan xalos bo'lishni tasavvur qilgan. Adabiyotda qushlarning samoga ko'tarilishi inson qalbidagi orzular, oriflik va yuksak intilishlarning timsoliga aylangan. Shu bois lirika janrida qushlarning parvozi nafaqat tabiat hodisasi, balki inson qalbining ozodlik sari parvozi sifatida ifodalanadi.

Qush, ayni paytda, inson ruhiyatining ma'naviy intilishi va o'sishida timsol sifatida ham qaraladi. Tasavvuf falsafasida qushning parvozi ruhning ilohiy manzil sari intilishi, kamolot sari yo'l yurishi, o'z "men"ini tanib, yuksalishga erishishini bildiradi. Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida qushlar yo'lga chiqqani kabi, inson ham ruhiy sayohat qilishi, sinovlardan o'tishi va komillikka erishishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu timsol ruhiy poklanish, sabr va irodaning zarurligini

ham badiiy tarzda anglatadi. Demak, qush obrazi inson ruhiyatining ichki o'sish jarayonini falsafiy-ma'naviy timsolga aylantiradi.

Milliy madaniyat va xalq dunyoqarashida qush obrazi estetik qadriyatlar ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodida qushlarning sayrashi, parvozlari, fasllarga mos ko'chishlari turli orzular, tilaklar va baxt ramzi sifatida qo'llanadi. Masalan, oqqush poklik va sadoqat, bulbul muhabbat va sadoqat, hudhud esa yo'lboshchilik va haqiqat timsoli sifatida talqin qilingan. Turkiy mifologiyada burgut kuch va himoya ramzi bo'lsa, Sharq she'riyatida turna orzu va safar ramziga aylangan. Bunday timsollar xalqning tabiatga bo'lgan estetik qarashini, madaniy merosidagi ramziy qatlamlarni namoyon etadi. Shu bilan birga, ular milliy tafakkurning birlashuv nuqtasi bo'lib, xalqning hayot tarzi va ruhiyatini aks ettiruvchi timsoliy obrazlar sifatida qadrlanadi.

Qush obrazi inson tafakkuri va tasavvurini boyituvchi badiiy element sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Shoир va yozuvchilar qush obrazidan ilhomlanib, uni turfa ramziy talqinlarda qo'llash orqali inson qalbidagi eng nozik kechinmalarni ifoda qilganlar. Qushning uchishi, sayrashi yoki o'ziga xos odatlari insonning orzularini, sevgi va sog'inchini, qo'rquv va umidlarini ifodalashda badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Natijada qush obrazida insoniyat tafakkurining falsafiy, ma'naviy va estetik qatlamlari mujassam bo'ladi.

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida qushlar inson ma'naviyati va tafakkurining ilhomlantiruvchi timsoli bo'lib kelgan. Ularning harakati, parvozi va ovozi orqali inson axloqiy fazilatlar, sabr-toqat, go'zallikka intilish kabi qadriyatlarni tasavvur qilishi mumkin. Qushning nafisligi va o'ziga xosligi orqali shoир o'quvchida estetik zavq uyg'otadi, tafakkurini kengaytiradi va ma'naviy o'sishga undaydi.

Badiiy adabiyotda qush obrazini o'rganish insoniyat tarixining qadimiy mifologik ildizlaridan boshlanishi lozim. Naqfaqat o'zbek, balki butun jahon adabiyotida qushlar inson ruhiyatini aks ettiruvchi va yaratuvchi kuch sifatida

talqin qilingan. Badiiy matnda, xususan she'riyatda qush poetik obrazi ma'naviy-estetik va milliy-madaniy fenomen sifatida qalamga olinadi.



XULOSA

Qushlar obrazi badiiy adabiyotda qadimdan buyon kuchli ramziy va estetik yuklama kasb etib kelgan timsol hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ushbu obrazning talqini har bir davr, adabiy maktab va madaniy muhitda o'ziga xos tarzda shakllangan. Sharq adabiyotida qushlar, ayniqsa, tasavvufiy manbalarda ruhiy kamolot, ilohiy haqiqatga intilish va ma'naviy yetuklikning ramzi sifatida gavdalananadi. G'arb adabiyotida esa bu obraz ko'proq ekzistensial ichtirob, insoniy yolg'izlik va ichki kechinmalar ifodachisi sifatida ishlatilgan.

Qush obrazining adabiy evolyutsiyasi shuni ko'rsatadiki, u faqat poetik-bezak vositasi emas, balki chuqur falsafiy va psixologik mazmunga ega badiiy vosita sifatida xizmat qilgan. Har bir davr adiblari ushbu obraz orqali o'z zamonasi muammolarini, ruhiy holatini yoki ijtimoiy-estetik qarashlarini ifodalaganlar.

Shunday qilib, qushlar obrazi universal, ammo kontekstual xarakterga ega timsol bo'lib, uning badiiy funksiyasi turli adabiy oqimlar va maktablar doirasida o'zgarib, boyib borgan. Bu esa adabiy obrazlarning doimiy ravishda yangilanib borishini va ular orqali inson tafakkuri, dunyoqarashi va hissiyotlarining murakkab ifodasini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fariduddin Attor. *Mantiq ut-Tayr* / tarj. A. Asqar. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 1990.
2. Alisher Navoiy. *Lison ut-Tayr*. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Edgar Allan Poe. *The Raven*. – Collected Works. – New York: Penguin Classics, 2003.

4. Carl Gustav Jung. *Man and His Symbols*. – London: Aldus Books, 1964.
5. Gaston Bachelard. *The Poetics of Space*. – Boston: Beacon Press, 1994.
6. Islomov N. *Badiiy obraz va timsollar poetikasi*. – Toshkent: Fan, 2005.
7. Karimov T. *Tasavvuf va adabiyot*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
8. Saidov U. *Adabiy obrazlar sistemasida ramziylik*. – Toshkent: O'zMU, 2010.
9. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/issue/view/54>